



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024
2/1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 2/1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д. Ф.А.Сафаров

катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:

и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

МУНДАРИЖА :

| НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ | |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Мурод Муҳаммедович Муҳаммедов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев “Хизмат” тушунчасининг иқтисодий кагегория сифатида назарий таҳлили | 5 |
| Ибодулла Ҳасанович Ибрагимов, Рустам Алижонович Мусабоев Истеъмолчилик хулқининг трансформацион хусусиятлари | 11 |
| Аскар Хайдарович Джумаев Жаҳон хўжалигида иқтисодий тизимларнинг қиёсланишининг услубий жиҳатлари | 16 |
| Shahobiddin Ziyadullayevich O‘rozov Amir Temur ijtimoiy faoliyatida ratsionallik yondashuvi | 20 |
| Lola Nazarovna Xalikova Ijtimoiy himoyalashga oid nazariy qarashlar | 24 |
| РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ | |
| Боҳодир Ибрагимович Исроилов, Бобуршоҳ Боҳодир ўғли Ибрагимов Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ ҳуқуқбузарликларини таснифлашнинг ўзига хос хусусиятлари | 28 |
| Қулмамат Джонузоқович Мирзаев, Гиёс Турабекович Юлдашев Республикамизда деҳқончиликни инновацион асосда ривожлантиришни асосий тараққиёт тенденциялари | 32 |
| Жунайдулло Садиевич Файзиев Умумий овқатланиш корхоналарини дастурий – аппарат комплексларидан фойдаланиб автоматлаштириш | 37 |
| САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ | |
| Раҳматулла Хидирович Эргашев Мева-сабзавотчилик маҳсулотлари кооперацияси ва унинг самарадорлигини ошириш | 42 |
| ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС | |
| Зариф Юсупович Аминов Инсон иқтисодий хавфсизлигига ишчи кучи сифатининг таъсири | 49 |
| Zubayda Ubaydullayevna Shodmanova Xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashdagi kamchilik va muammolar | 53 |
| Bekjon Shukurillayevich Musayev Oliy ta’lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targ‘ib qilishning uslubiy asoslari | 57 |
| Sadoqat Qudratovna Bultakova Xizmat ko‘rsatish sohasi va uning O‘zbekistonda o‘shish dinamikasi | 63 |
| Luiza Komilovna Haydarova Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalarni tatbiq etish zaruriyati va omillarini tahlili | 67 |
| ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ | |
| Akram Abduraxmonovich Azizqulov Xatirchi tumanida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari | 74 |

- иш хақи ва ижтимоий тўловларнинг кечиктирилишига ва ўз вақтида тўланмаслигига йўл қўймаслик чораларининг қўлланилиши;
- ҳар қандай шахсий мулк хажми даромад олиш манбаи сифатида қаралиши ва уларнинг дифференциялаштирилиши;
- ноқонуний даромадлар ва меҳнатга ҳақ тўлашнинг яширин услларига барҳам бериш чораларининг кўрилатганлиги кабиларни эътироф этиш лозим.

Катта даромадли оилаларнинг вужудга келиши давом этаётган шароитда асосий ижтимоий вазифа ишчи кўчи бозори ва меҳнатга ҳақ тўлаш соҳасида қайта тузилиш орқали даромадларни тақсимлаш механизмида туб ўзгаришларни ясашдан иборат. Меҳнатга ҳақ тўлаш жараёнидаги ижтимоий ислоҳатлар учта бир-бири билан ўзаро боғлиқ бўлган таркибдан иборат бўлиши керак: меҳнат хақини ҳозиргидек ошириб бориш тенденциясини давом эттириш, аҳолининг яшаш сифатини турли хизматларни кўрсатишни йўлга қўйган ҳолда оширишга эришиш, ривожланган мамлакатлар сингари ижтимоий суғурталар учун юқорида тўловларини киритиш.

Ишчи кучи сифати ва шу билан биргаликда, шахснинг, давлат ва жамиятнинг иқтисодий тараққиёт ва иқтисодий хавфсизлиги инсон саломатлиги билан кўп жиҳатдан боғлиқ. Шу туфайли ишчи кучи сифатига энг асосий омиллардан бири инсон саломатлиги эканлигини асосладик.

| З.Аминов | Z.Aminov |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Влияние качества рабочей силы на экономическую безопасность человека | The impact of the quality of the labor force on human economic security |
| Аннотация: в статье рассмотрено понятие безопасности человека и влияние качества рабочей силы на экономическую безопасность человека, а также взаимосвязь между качеством рабочей силы и экономической безопасностью. | Abstract: the article describes the concept of human security and the influence of the quality of the workforce on human economic security, as well as the relationship between the quality of the workforce and economic security. |
| Ключевые слова: безопасность человека, качество труда, экономическая безопасность человека, неравенство и бедность. | Keywords: Human security, labor quality, human economic security, inequality and poverty. |

Zubayda Ubaydullayevna Shodmanova – SamISI, “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası assistenti

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDAGI KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHDAGI KAMCHILIK VA MUAMMOLAR

| |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>Annotatsiya: maqolada xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarining iqtisodiy xavfsizlik tizimini tashkil etishda duch keladigan asosiy kamchilik va muammolari o‘rganilgan. Xavflarni keng qamrovli baholash orqali iqtisodiy xavfsizlikka erishish shartlari keltirilgan. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini har xil tahdidlardan himoyalash, muammo va kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir qancha tadbirlarni amalga oshirish choralari keltirilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: iqtisodiy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, globallashuv va xalqaro tahdidlar, ta‘minlash strategiyasi, ichki va tashqi tahdid, operatsion uzilishlar, moslashuvchanlik.</p> |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

Kirish. Mamlakat milliy xavfsizligining holati ko‘p jihatdan har bir korxonada iqtisodiy xavfsizlik muammolari qanday hal qilinishi bilan belgilanadi. Umuman olganda, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi darajasiga ichki va tashqi omillar o‘z ta‘sirini o‘tqazadi. Tashqi muhit va uning dinamik o‘zgarishlari korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ichki omillar katta ahamiyatga ega. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonaning iqtisodiy xavfsizligi boshqaruvdagi personal tomonidan amalga oshirilgan huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va muhandis-texnik tavsifidagi chora-tadbirlar tizimi natijasida yuzaga keltirilgan aniq muhim iqtisodiy munosabatlarning ichki va tashqi xavf-xatarlaridan himoyalanganlik holatidagina kuzatishimiz mumkin. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi

korxonalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi sohada raqobatning kuchayishiga, xizmatlar turlarining ko'payishi va sifatining yaxshilanishiga xizmatlar faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash zarurligini talab qiladi. Bu o'z navbatida keng xalq ommasining xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari oshishiga va nihoyat, xizmat ko'rsatish sohasi faoliyati samaradorligining oshishiga yordam beradi. O'z navbatida, mamlakatning iqtisodiy salohiyat darajasi ma'lum darajada davlat iqtisodiyotining asosiy tomiri bo'lgan sanoat korxonalarining ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati natijasida shakllanadi. Korxonaning zamonaviy faoliyati sharoitida uning iqtisodiy xavfsizligi muammolarining dolzarbligi uning asoslari va alohida tarkibiy qismlarini o'rganish zarurati bilan belgilanadi. Statistikaadagi ma'lumotlarga asosan shuni aytib o'tish joyizki, respublikamiz milliy iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasining o'rnini va ahamiyati oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining YIM da xizmatlar sohasining ulushi 47,1%i (2023-yil) ni tashkil etadi. Undan tashqari mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan korxonalarining 70,4% (2023-yil) xizmatlar sohasiga to'g'ri kelayotganligi hamda aholining 55% dan ortig'i xizmatlar sohasida ishlayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ma'lumotlardan ham kelgusida mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasini samarali amalga oshirishda xizmatlar sohasini jadal rivojlanishi aynan shu sohaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari ustida ilmiy-nazariy ishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Korxonaning iqtisodiy yuksalishi qancha muhim bo'lsa, undan kam bo'lmagan muhim masalalardan biri ularning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasidir va xavfsizlikni ta'minlashning fundamental asoslari xorijlik olimlardan: Avdiyskiy V.I., Blank I.A., Grunin O.A., Zelenkov M., Kormishkina L.A., Vechkanov G.S., Kostin V.I., Popov A.I., Gradov A.P., E.A. Oleynikova, V.K. Senchagova, V.I. Yarochkina, V.A. Chernova, L.I. Abalkina, E.A. Utkina, V.V. Gorshkova boshqalar tomonidan o'rganilgan. Iqtisodiy xavfsizlik masalasini bugungi kunda vatanimiz olimlari ham o'rganib kelmoqda. Jumladan: Q.X.Abdurahmonov, M.Q.Pardayev, B.A.Abdukarimov, X.P.Abulqosimov, Z.N.Kurbanov, D.I.Ismatov, M.M.Muhammedov, G.Axunova, M.X.Saidov, A.A.Maxmudov, E.N. Xodjayev, A.E. Ishmuhammedov, A.I. Igamberdiyev, Z.Yu.Aminovlarning ilmiy-tahliliy tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Ushbu ilmiy tadqiqotlarda milliy iqtisodiyotning, davlatlarning, ayrim hududlar, korxonalar xavfsizligiga umumiy tarzda to'xtalgan. Lekin korxonalarining, xususan xizmatlar sohasida o'z faoliyatini yuritayotgan subyektlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq masalalari yaxlit tarzda o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xizmatlar sohasining rivojlanishida kuzatish, abstrakt, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, ekstropoloyatsiya va ilmiy ekspeditsiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiy xavfsizlik har qanday korxonaning barqaror ishlashi va rivojlanishi uchun muhim jihatdir. U xizmatlar sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalarining moliyaviy barqarorligi, obro'si va umumiy farovonligiga xavf solishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish uchun amalga oshiradigan turli chora-tadbirlar va strategiyalarni o'z ichiga oladi. Biroq, iqtisodiy xavfsizlik muhimligiga qaramay, ko'plab korxonalar samarali iqtisodiy xavfsizlik tizimini tashkil etish va qo'llab-quvvatlashda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi tizimini tashkil etishda duch keladigan asosiy muammolarning bir qismi o'rganiladi.

Globalashuv va xalqaro tahdidlar o'zaro bog'langan global iqtisodiyotda korxonalar o'zlarini iqtisodiy xavfsiz holda ko'rishlariga mumkin qadar ko'proq duchor bo'lmoqdalar. Bunga geosiyosiy beqarorlik, transcargaraviy kiberhujumlar va iqtisodiy josuslik kabi xavflar kiradi. Ko'p mamlakatlarda faoliyat yurituvchi korxonalar turli xil huquqiy va me'yoriy bazalarni o'zlashtirishlari va mintaqaga xos xavfsizlik muammolarini hal qilishlari kerak. Xalqaro tahdidlarni har tomonlama tushunishni ishlab chiqish va ularni yumshatish bo'yicha strategiyalarni amalga oshirish globalashgan biznes muhitida iqtisodiy xavfsizlikni saqlash uchun juda muhimdir.

Korxonada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bir muncha murakkab jarayon bo'lib, ayni

damda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarni oldini olishda har bir korxonaning o‘zining maxsus xavfsizlik talablari qo‘yiladi. Bu talablarni amalga oshirish uchun har bir sohada iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash strategiyasi bo‘lishi talab etiladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash strategiyasi deganda, korxonada ish faoliyatini amalga oshirishda uning xavfsizligini yetarli darajasida ta‘minlashga qaratilgan eng muhim qaror va chora – tadbirlar yig‘indisi tushuniladi¹.

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonaning iqtisodiy xavfsizligini nazorat qilish bo‘yicha belgilangan talablarni amalga oshirish uchun o‘zining xavfsizlik strategiyalarini aniqlab olishi va tahdid solayotgan xatarlarni bilishi juda muhimdir. O‘z navbatida korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ko‘rsatib beradigan ko‘rsatgichlarni o‘rganish va ular yuzasidan xavfsizlik choralarni ko‘rish kerak bo‘ladi. Ming afsuslarki, respublikamizda xizmat ko‘rsatish sohalarida iqtisodiy xavfsizligini monitoring qilish va baholash bo‘yicha avtomatlashtirilgan tizimining ishlab chiqilmaganligi bu boradagi amaliy muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasidagi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligiga ta‘sir ko‘rsatadigan xatarlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladigan ichki va tashqi tahdidlarni o‘rganadigan bo‘lsak, bu tahdidlar asosan ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladi:

- asosiy kapitalni eskirishi yoki ommaviy tarzda ishdan chiqishi, ularning o‘rnini qoplashning iloji bo‘lmasligi va buning natijasida ishlab chiqarish jarayonining inqirozga yuz tutishi;
- zamonaviy texnologiyalar bilan ta‘minlanmaganligi;
- ishlab chiqarish xarajatlarini to‘g‘ri baholamaslik;
- korxonada muhim ma‘lumotlarni kafolatli saqlashdagi muammolar va boshqa noxush hodisalarning mavjud bo‘lishi;
- korxonada boshqaruvidagi xatolari ;
- korxonagi xodimlarining xavfsizlik doirasida yetarli bilimning yetishmasligi;

Xizmatlar sohasidagi korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi tashqi tahdidlarni quyidagicha izohlash mumkin:

- tovarlar bozorida o‘z o‘rnini yo‘qotish, ya‘ni o‘z tovarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta‘minlaydigan foyda bilan sotish imkoniyatining yo‘qligi;
- mamlakatda moliyaviy holatning salbiy tomonga o‘zgarishi;
- fond bozorida korxonada aksiyalari narxlarining pasayib ketishi, ya‘ni korxonaning kapitallashuv darajasining pasayishi;
- xaridorlarning to‘lov intizomini buzishi;
- nohalol raqobatchilar va kontragentlar;
- kriminal raqobat;
- sanoat shpionaji;
- davlatning jinoiy–huquqiy va iqtisodiy siyosatining zaif tomonlari;
- kompyuter texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi jinoyatlar;
- yangi mahsulot ishlab chiqarish va uni ishlab chiqarishga joriy etish².

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta‘sir ko‘rsatadigan tahdidlarni bartaraf etish uchun bir qator vazifalarni amalga oshirish kerak bo‘ladi. Korxonada xodimlarining yuqori malakaga ega bo‘lishlarini ta‘minlash, xodimlarning yuqori intellektual salohiyatga ega bo‘lishlariga erishish, korxonaning texnik va texnologik jihatdan mustaqilligini ta‘minlash, yuqori raqobatbardoshligiga erishish, korxonani boshqarishda yuqori samaradorlikka erishish, korxonada faoliyatining yetarli ekologik darajasini ta‘minlash, korxonaning huquqiy himoyalanganligini, korxonaning axborot muhiti himoyasini ta‘minlash, korxonada xodimlarining xavfsizligini ta‘minlash kabilar shular jumlasidandir³.

Xavfni har tomonlama baholashning yo‘lga qo‘yilmaganligi iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini tashkil etishning asosiy masalalaridan biri hisoblanib, bu risklarni kompleks

¹ Z. Aminov. Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash yo‘llari. Iqtisod fanlari nomzodi... dissertatsiya avtoreferati. Samarqand. 2009. 10 b.

² Вечканов Г.С.. Экономическая безопасность. Учебник. –СПб.: Питер, 2007, с.227- 228

³ Termiz davlat universiteti “Iqtisodiy xavfsizlik”. Ma‘ruzalar matni. Termiz, 2014, 66-bet

baholashning yo‘qligi hisoblanadi. Korxonalarga ko‘pincha o‘z ta‘sirini o‘tkazishi mumkin bo‘lgan potensial tahdidlar, zaifliklar va xavflarni to‘liq tahlil qila olmaydi. Bu e‘tibor va yetarli himoya talab qiladigan muhim hududlarni aniqlashda muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin. Xavflarni keng qamrovli baholashsiz, tashkilotlar potensial xavflarni e‘tiborsiz qoldirishi mumkin, bu ularni moliyaviy yo‘qotishlar, firibgarlik, kiberhujumlar va boshqa xavfsizlik buzilishlariga ko‘proq moyil qiladi.

Axborot xavfsizligini ta‘minlash choralari yetarli emasligi ham bugungi raqamli asrda axborot xavfsizligi iqtisodiy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu o‘rinda ko‘pgina xizmat ko‘rsatish korxonalari axborot xavfsizligini bartaraf etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun kurashmoqda. Bu muammo paydo bo‘layotgan kibertahdidlar haqida xabardorlik yetishmasligi, axborot xavfsizligi uchun ajratilgan cheklangan resurslar yoki mustahkam xavfsizlik protokollarini amalga oshirmaslik tufayli yuzaga kelishi mumkin. Axborot xavfsizligini ta‘minlash choralarning yetarli emasligi korxonalarni ma‘lumotlarning buzilishi, intellektual mulkni o‘g‘rilash va operatsion uzilishlarga olib keladi, bu esa katta moliyaviy va obro‘ga zarar yetkazishi mumkin.

Noto‘g‘ri ichki nazoratning yuritilishi esa korxonada xavfsizlikni saqlashning yanada qiyinlashuviga olib keladi, shuning uchun samarali ichki nazorat muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi. Biroq, ba‘zi korxonalar mustahkam ichki nazorat tizimini yaratish va qo‘llab-quvvatlashda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Vazifalarning zaif taqsimlanishi, nazoratning yo‘qligi, monitoring mexanizmlarining yetarli emasligi kabi muammolar moliyaviy jarayonlarning yaxlitligiga putur yetkazishi, firibgarlik va o‘zlashtirish xavfini oshirishi mumkin. Ichki nazoratning yetarli emasligi, shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni yanada xavf ostiga qo‘yib, operatsion samarasizlik va qoidabuzarliklarni aniqlash va oldini olishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Xodimlarni xabardor qilish va o‘qitishdagi son xatosi va beparvoligi tashkilotning iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy tahdid solishi mumkin. Xodimlarning xavfsizlik protokollari va ilg‘or amaliyotlar bo‘yicha yetarlicha xabardorligi va o‘qitilmasligi korxonada ichidagi zaifliklarni oshirishi mumkin. Xodimlar bilmagan holda xavfli xatti-harakatlarga kirishishi, ijtimoiy muhandislik hujumlari qurboni bo‘lishi yoki nozik ma‘lumotlarni noto‘g‘ri boshqarishi mumkin. Korxonada xodimlarni xavfsizlikka tayyorlash, kutilayotgan xavflar va zarur profilaktika choralarni o‘rgatish uchun kompleks o‘quv dasturlariga sarmoya kiritishi kerak.

Hamkorlik va muvofiqlashtirishning yetishmasligi iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini tashkil etish ko‘pincha korxonada ichidagi turli bo‘limlar va bir-biriga manfaat keltiruvchi ikki tomon o‘rtasida hamkorlik va muvofiqlashtirishni talab qiladi. Biroq, ko‘plab tashkilotlar samarali aloqa kanallarini o‘rnatish va hamkorlik madaniyatini rivojlantirish bilan kurashmoqda. Bo‘limlar va o‘zaro funktsional hamkorlikning yo‘qligi oqibatida operatsion uzilishlarning yuzaga kelishi, ma‘lumotni o‘z vaqtida almashishga to‘sqinlik qilishi, xavflarni kamaytirish harakatlariga to‘sqinlik qilishi va iqtisodiy xavfsizlik tizimining umumiy samaradorligini buzishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlikni birinchi o‘ringa qo‘yish, muntazam baholashlar o‘tkazish, qat‘iy chora-tadbirlarni amalga oshirish, xavfsizlikdan xabardorlik madaniyatini oshirish va rivojlanayotgan tahdidlarga moslashish orqali tashkilotlar o‘zlarining iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini mustahkamlashlari va uzoq muddatli muvaffaqiyatlarini himoya qilishlari mumkin. Shunday qilib, korxonalar iqtisodiy xavfsizlik barqarorligini oshirishi va moliyaviy barqarorlik, obro‘-e‘tibor va umumiy farovonlik uchun xavflarni samarali tarzda kamaytirishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, bugungi kunda xizmat sohasining rivojlanishi sohada faoliyat yuritayotgan korxonalarda iqtisodiy xavfsizlik tizimini tashkil etish turli omillarni sinchiklab hisobga olishni talab qiladigan murakkab vazifalardan biridir. Xizmatlar sohasidagi korxonalar o‘zlarining iqtisodiy xavfsizligini yaxshilash uchun ushbu maqolada taklif qilingan muammolarni hal qilishlari kerak.

Takliflar o‘rnida shu ma‘lumotlarni keltirib o‘tish joizki, xizmat ko‘rsatish korxonalarida xatarlarni keng qamrovli baholashni o‘tkazish, axborot xavfsizligi bo‘yicha mustahkam chora-tadbirlarni amalga oshirish, ichki nazoratni kuchaytirish, xodimlarning xabardorligini oshirish va o‘qitish va hamkorlikni rivojlantirish orqali xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar o‘z xavflarni

kamaytirishi, o‘z aktivlarini himoya qilishi va tobora o‘zgaruvchan biznes muhitida uzoq muddatli barqarorlikni ta‘minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.-592 b.
2. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность. Учебник для вузов. –СПб. Питер. 2007
3. Q. Abdurahmanov Mehnat iqtisodiyoti. Nazariya va amaliyot. Fan nashryoti 2019
4. Isaxodjaev A., Rasulov A. Xufiyona iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlik. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004.
5. Z. Aminov. Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash yo‘llari. Iqtisod fanlari nomzodi ... dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand. 2009. 10-b.
6. Iqtisodiy xavfsizlik: Darslik / T.T. Jo‘rayev, Sh.R. Qobilov, Sh.A. Allayarov, X.S. Asatullayev; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2020
7. Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik: Nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma. - T.: Noshirlik nashriyoti, 2019 - 620 b.
8. Abulqosimov X.G., Rasulov T.S. va b. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va raqobatbardoshligini ta‘minlashning barqaror yo‘nalishlari. Monografiya. - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot - matbaa uyi". 2019. - 395 b.
9. Абулқосимов Х.П. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. - Т.: «Академија», 2012. -102 б.
11. Xolikova L.N., Iskandarov B.A.. Iqtisodiy xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma. 2023

| | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>З.Шодманова</p> <p>Недостатки и проблемы в обеспечении экономической безопасности предприятий сферы услуг</p> | <p>Z.Shodmanova</p> <p>Shortcomings and challenges in ensuring economic security for service sector enterprises</p> |
| <p>Аннотация: в данной статье рассмотрены основные недостатки и проблемы, с которыми сталкиваются предприятия сферы услуг при организации системы экономической безопасности. Условия достижения экономической безопасности представлены посредством комплексной оценки рисков. Принят ряд мер по защите экономической безопасности предприятий сферы услуг от различных угроз, устранению проблем и недостатков.</p> <p>Ключевые слова: экономическая безопасность, информационная безопасность, глобализация и международные угрозы, стратегия поставок, внутренние и внешние угрозы, операционные сбои, гибкость.</p> | <p>Abstract: this article examines the main shortcomings and problems faced by enterprises in the service sector in the organization of the economic security system. Conditions for achieving economic security are presented through a comprehensive risk assessment. A number of measures have been taken to protect the economic security of enterprises in the service sector from various threats, to eliminate problems and shortcomings.</p> <p>Keywords: economic security, information security, globalization and international threats, supply strategy, internal and external threats, operational failures, flexibility.</p> |

Bekjon Shukurillayevich Musayev – SamISI dotsenti, mustaqil izlanuvchisi

OLIV TA‘LIM XIZMATLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TARG‘IB QILISHNING USLUBIY ASOSLARI

| |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>Annotasiya: ushbu maqolada oliy ta‘lim muassasalari web-saytini baholashning sotsiologik so‘rov usuli bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari bo‘yicha Samarqanddagi OTMlarning web-saytiga tashrif buyuruvchilarning tashrif maqsadi, OTMlar web-sayti jozibadorligi so‘rov usuli orqali baholash natijalari, OTMlar web-saytida joylashtirilishi kerak bo‘lgan kontentlarga talab tahlili keltirilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: web-saytning dizayni, web-saytning navigatsiyasi, web-saytning interaktivligi, web-saytning kontenti, web-saytning internet ko‘rinishi, targ‘ib qilish vositasi.</p> |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

22.05.2024 йилда теришга берилди. 7.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076А/24.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.